“Ma’rifatli jamiyat – Uchinchi Renessans bunyodkori” esselar tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda – ta’lim muassasalari) fan o‘qituvchilari o‘rtasida “Ma’rifatli jamiyat – Uchinchi Renessans bunyodkori” esselar tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son va “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi.

3. Tanlovni o‘tkazilishi bilan bog‘liq barcha jarayonlar respublika Tashkiliy qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

4. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash va rag‘batlantirish Xalq ta’limi vazirligi va boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

5. Tanlov jarayonlari va natijalari Xalq ta’limi vazirligining rasmiy veb-sayti www.uzedu.uz orqali e’lon qilinadi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

6. Tanlovning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- maktab ta’limini rivojlantirish borasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini keng targ‘ib etish;
- ma’naviy va intellektual salohiyatli, Vatan va xalq manfaatlarini qat’iy himoya qila oladigan yosh avlodni tarbiyalashda o‘qituvchilarning mas’uliyatini oshirish;
- ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyotning jamiyat hayotida, xususan, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda tutgan o‘rni va ahamiyatini keng targ‘ib etish;
- o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish.

III. Tanlovni o‘tkazish muddati va bosqichlari

7. Tanlovni o‘tkazish muddati:
joriy yilning 26-sentabridan 21-oktabriga qadar.

8. Tanlov quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

1- bosqich: ta’lim muassasalarida joriy yilning 26-sentabr kuni;

2- bosqich: tuman (shahar) miqyosida joriy yilning 5-oktabr kuni;

3-bosqich: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar miqyosida (hududiy) joriy yilning 11-oktabr kuni;

4- bosqich: Respublika bosqichi joriy yilning 17-oktabridan 21-oktabriga qadar Toshkent shahrida o‘tkaziladi.

Tanlov g‘oliblarini e’lon qilish va taqdirlash 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni arafasida amalga oshiriladi.

IV. Tanlovda ishtirok etish tartibi

9. Tanlov Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari o‘rtasida 2 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘tkaziladi:

1-yo‘nalish: ona tili va adabiyot (ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari) fanlari o‘qituvchilari, o‘zbek tili (ta’lim qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari) fani o‘qituvchilari.

2-yo‘nalish: ta’lim tilidan qat’iy nazar barcha fan o‘qituvchilari.

10. Tanlovda umumta’lim maktablarining 1-11-sinflarida dars beradigan o‘qituvchilar belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha ixtiyoriy ravishda ishtirok etishlari mumkin.

Tanlovning barcha bosqichlarida 1-, 2-, 3-o‘rin g‘oliblari aniqlanadi.

Mazkur tartib tanlovning barcha bosqichlarida amal qiladi.

V. Tanlovni o‘tkazishning tashkiliy masalalari

11. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari:

ta’lim muassasalaridagi barcha pedagog xodimlarni tanlov shartlari bilan tanishtiradi;

tuman (shahar), hududiy Tashkiliy qo‘mitalari tarkibini tasdiqlaydi;

tanlovning ikkinchi va uchinchi bosqichlari o‘tkaziladigan muassasalarni belgilaydi va reja-jadvalini ishlab chiqadi;

tanlov bosqichlarining to‘liq videotasvirga tushirilishini ta’minlaydi;

tanlovni Nizom talablariga muvofiq yuqori saviyada shaffof va adolatli o‘tkazilishini amalga oshiradi;

tanlov yakunlangan kundan kechiktirmay tanlov natijalarini ishtirokchilarga e’lon qiladi;

tanlovning hududiy bosqichlari yakuni yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtiradi hamda har bir bosqich yakuni bo‘yicha Respublika ta’lim markaziga axborot kiritib boradi;

tanlovning respublika bosqichi ishtirokchilarini belgilangan muddatlarda Toshkent shahriga yetib borishlarini ta’minlaydi.

12. Respublika ta’lim markazi:

Tanlov bosqichlarini muvofiqlashtirib boradi;

tanlovning barcha bosqichi ishtirokchilari ro‘yxatini shakllantiradi, tanlovning barcha bosqichlari ishtirokchilarning to‘plagan ballarini umumlashtiradi;

tanlov natijalari yuzasidan tahliliy ma’lumotlarni Xalq ta’limi vazirligiga taqdim etadi.

VI. Tanlovni o‘tkazish tartibi

13. Tanlovning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlari – esse yozish sharti asosida quyidagi tartibda tashkil etiladi:

respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan oldindan tanlangan film namoyish etiladi;

ishtirokchilar ko‘rgan filmlaridan olgan taassurotlari asosida esse (lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida) yozadilar. Esse yozish uchun 2 (akademik) soat vaqt beriladi.

14. Tanlovning birinchi bosqichini o‘tkazish mas’uliyati maktab direktori zimmasiga yuklatiladi.

Tanlovning birinchi bosqich ishtirokchilari ro‘yxati va 2 ta yo‘nalish bo‘yicha 1-o‘rin g‘olibi to‘g‘risidagi (ishtirokchilarning familiyasi, ismi, maktab raqami, dars beradigan fan nomi, olgan bali, telefon raqami ko‘rsatilgan holda, elektron shaklda) ma’lumot maktab rahbariyati tomonidan shakllantirilib, 2022-yil 29-sentabrga qadar tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limiga taqdim etiladi. Tanlovning ikkinchi bosqichida 2 ta yo‘nalishning har biridan 1-o‘rinni egallagan ishtirokchilar qatnashadilar.

15. Tanlovning ikkinchi bosqichini o‘tkazish tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari zimmasiga yuklatiladi. Tanlov g‘oliblarining ro‘yxati 2022-yil 7-oktabrga qadar hududiy boshqarmalarga taqdim etiladi. Tanlovning uchinchi bosqichida 2 ta yo‘nalishning har biridan 1-o‘rinni egallagan ishtirokchilar qatnashadilar.

16. Tanlovning uchinchi bosqichi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari mas’ulligida tashkil etiladi. Tanlov g‘oliblarining ro‘yxati 2022-yil 14-oktabrga qadar Respublika ta’lim markaziga taqdim etiladi. Tanlovning to‘rtinchi bosqichida 2 ta yo‘nalishning har biridan 1-o‘rin sohiblari ishtirok etadi.

17. Tanlovning barcha bosqichlarida auditoriyaga mobil aloqa vositalari, noutbuk, planshet va boshqa texnika vositalarini olib kirish taqiqlanadi.

18. Tanlov ishtirokchilarining ishlari mazkur Nizom bilan tasdiqlangan baholash mezoni asosida baholanadi.

19. Tanlovning to‘rtinchi bosqichi respublika Tashkiliy qo‘mitasi va Respublika ta’lim markazining bevosita mas’ulligida quyidagi tartibda tashkil etiladi:

Ishtirokchilar qur’a tashlash yo‘li bilan 2 guruhga bo‘linadi.

1-guruhga film namoyish etiladi.

2-guruhga san’at asari namoyish etiladi.

Ishtirokchilar ko‘rgan filmi yoki san’at asaridan olgan taassurotlari asosida esse (lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida) yozadilar. Esse yozish uchun 2 (akademik) soat vaqt beriladi. Tashkiliy qo‘mita tomonidan oldindan tanlangan film yoki san’at asari namoyish etiladi.

20. Tanlovning respublika bosqichidagi tanlov jarayonlari videotasvirga olinadi. Alohida tashkillashtirilgan joyda hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillariga tanlov jarayonlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri kuzatib borish imkoniyati yaratiladi.

21. Hakamlar hay’ati tomonidan 2 ta yo‘nalish bo‘yicha g‘oliblar va nominatsiyalar bo‘yicha sovrindorlar aniqlanadi.

VII. Tanlovni baholash mezonlari

22**. Esse yozish sharti** quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Ishtirokchilar tomonidan yozilgan esselar umumiy 100 ballik mezonda baholanadi.

1. Film (asar)ni yoritishda shaxsiy fikr va mulohazani bildira olishi, shuningdek, film (asar) mavzusi, mazmuni hamda asosiy g‘oyasini chuqur anglashi – 0-15 ball.

2. Esseni shakllantirish tartibiga amal qilinganligi (kirish, asosiy qism va xulosa) 0-10 ball.

3. Fikrlarni dalillash, tanqidiy, tahliliy mulohaza yuritilishi – 0-15 ball.

4. Film (asar) yuzasidan o‘rinli xulosalar chiqarish, takliflar berilishi – 0-15 ball.

5. Fikrlar oqimida mantiqiy izchillikning bo‘lishi – 0-15 ball.

6. Adabiy til me’yorlariga mos kelishi – 0-10 ball.

7. Matnning tegishli uslubda yozilishi – 0-10 ball.

8. Imlo qoidalariga rioya etilishi – 0-10 ball.

VIII. Hakamlar hay’ati

23. Tanlovning barcha bosqichlarini shaffof va adolatli o‘tkazish maqsadida mutaxassislardan iborat Hakamlar hay’ati, ekspert komissiyasi tarkibi tuziladi va Tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi. Tanlov hay’ati tarkibiga soha mutaxassislari (tajribali pedagoglar, kinoijodkorlar, yozuvchi va shoirlar) jalb etiladi.

24. Hakamlar hay’ati a’zolari orasidan rais ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

25. Hakamlar hay’ati a’zolari baholash mezoni asosida ishtirokchilarning yakuniy bosqichda olgan baholarini umumlashtirgan holda tanlov g‘oliblarini aniqlab beradi.

26. Hakamlar hay’ati a’zolarining xulosalari qaror bilan rasmiylashtiriladi. Ijodiy ishlarni Hakamlar hay’atining har bir a’zosi baholaydi va sanoq komissiyasiga taqdim etadi.

27. Sanoq komissiyasi ballarni qo‘shib, o‘rtacha ballni chiqaradi va natijani e’lon qiladi.

28. Sanoq komissiyasi Hakamlar hay’ati a’zolari o‘rtasida qur’a tashlash yo‘li bilan belgilanadi.

IX. Tanlovning ekspert komissiyasi

29. Tanlov ishtirokchilari tomonidan bildirilgan yozma ariza va e’tirozlarni ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyasi tarkibi tasdiqlanadi. Ishtirokchilarning tanlov jarayoni va shartlari bo‘yicha bildirgan yozma arizasi joyida faqat ariza beruvchi o‘qituvchi ishtirokida (boshqalarning bu jarayonga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi) komissiya a’zolari tomonidan shu kunning o‘zida ko‘rib chiqiladi hamda xulosalar rasmiylashtiriladi.

X. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

30. Tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichida 2 ta yo‘nalish bo‘yicha 1-, 2-, 3-o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limining Faxriy

yorlig‘i, qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar, kasaba uyushmalari va homiylarni jalb etgan holda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

31. Tanlovning uchinchi bosqichida 2 ta yo‘nalish bo‘yicha 1-, 2-, 3-o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalarining Faxriy yorlig‘i, qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar, kasaba uyushmalari va homiylarni jalb etgan holda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

32. Tanlovning respublika bosqichi yakunlariga ko‘ra g‘oliblar quyidagi tartibda taqdirlanadi:

har ikkala yo‘nalish bo‘yicha 1-o‘rin g‘oliblari I darajali diplom, Noutbuk;

har ikkala yo‘nalish bo‘yicha 2-o‘rin g‘oliblari II darajali diplom, Planshet;

har ikkala yo‘nalish bo‘yicha 3-o‘rin g‘oliblari III darajali diplom, Smart (aqlli soat).

Tanlovning qolgan boshqa ishtirokchilari ham Hakamlar hay’ati va Tashkiliy qo‘mitaning tavsiya va takliflariga ko‘ra taqdirlanishlari mumkin.

33. Eng yuqori natijani qayd etgan esse mualliflari bilan onlayn suhbat tashkil qilinadi. Suhbatda ishtirokchilar yozgan esselari yuzasidan savollarga javob berishi, o‘z fikr-qarashlarini himoya qilishi kerak bo‘ladi.

34. Tanlovning respublika bosqichida ishtirok etgan o‘qituvchilarning eng yaxshi esselari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari va elektron ta’lim resurslari portallariga joylashtiriladi.

XI. Yakuniy qoidalar

35. Tanlovning barcha bosqichlarida ishtirokchidan tashqari, uni qo‘llab-quvvatlovchilarning tanlov jarayonlariga, Tashkiliy qo‘mita, Hakamlar hay’ati, ekspert komissiyasi a’zolari faoliyatiga xalaqit berishi, tanlov natijalariga asossiz aralashuvlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

36. Mazkur Nizom talablariga rioya qilmagan ishtirokchilar Hakamlar hay’ati tomonidan tanlovdan chetlashtirilib, bu haqida hay’at raisi va a’zolari tomonidan dalolatnoma tuziladi